

MASOFAVIY TA'LIMNING YUTUQLARI VA KAMCHILIKLARI

F. Jo'raqulova¹, A. O'ktamov²
(Scientific supervisor: Latipov Aziz Akbaralievich)

Annotatsiya:

Ushbu maqolada masofaviy ta'limning yutuqlari va kamchiliklari haqida so'z boradi. Chunki masofaviy ta'lim bugungi kunda texnologiyalar rivoji tufayli keng tarqalib, ta'lim olishning zamonaviy shakli sifatida e'tirof etilmoqda. Uning yutuqlari orasida qulaylik va moslashuvchanlik alohida ajralib turadi. O'quvchilar istalgan vaqtda, geografik joylashuvidan qat'i nazar, bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Biroq, kamchiliklari ham yo'q emas. O'quvchilarda intizom va o'zini o'zi boshqarish ko'nikmalarining yetarli bo'lmasligi muammoga olib kelishi mumkin. Shuningdek, o'quv jarayonida ijtimoiy aloqalar va bevosita muallim bilan muloqotning yetishmasligi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli mavjud. Internet yoki texnik vositalar bilan ta'minlanmagan talabalar uchun teng imkoniyatlarning cheklanishi ham jiddiy muammo sanaladi.

Kalit so'zlar: masofaviy ta'lim, moslashuvchanlik, ta'lim texnologiyalari, motivatsiya muammolarining kamayishi, ta'lim xarajatlarining tejalishi.

doi: <https://doi.org/10.2024/pw9hab54>

Kirish

Tarixan, masofaviy ta'lim 18-asrga, AQShda bosma shakldagi yozishmalar orqali ta'lim olishning boshlanishiga borib taqaladi. 19-asrning o'rtalarida yozishmalar orqali ta'lim rivojlana boshladi va Yevropada (Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniya) hamda AQShda keng tarqaldi. Stenografiya ixtirochisi bo'lgan ingliz Isaac Pitman odatda yozishmalar kurslarini birinchi bo'lib qo'llagan shaxs sifatida tan olinadi. 1960-yillarning oxiri va 1970-yillarning boshlariga kelib, yangi media texnologiyalari va yetkazib berish tizimlarining rivojlanishi tufayli masofaviy ta'limda sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ldi. Hozirgi kunda, zamonaviy texnologiyalar taraqqiyoti bilan ta'lim olish yanada osonlashmoqda. An'anaviy darsliklar va auditoriyalardan farqli o'laroq masofaviy ta'lim o'zining qulayligi va o'rganuvchilar uchun keng imkoniyatlarni namoyish etish orqali ta'lim jarayoning ajralmas qismiga aylanmoqda. Ta'lim olishning bu turi o'quvchilarga har tomonlama foydali hisoblanadi ya'ni u joy va vaqt cheklovlarini bartaraf etadi va o'rganuvchilar o'zlari xohlagan joyda va vaqtda ta'lim olishlari mumkin. Ushbu maqolaning maqsadi masofaviy ta'limning afzalliklari va kamchiliklari haqida hamda ta'lim tizimidagi o'rnini tahlil qiladi.

Asosiy qism

Zamonaviy sharoitda masofaviy ta'limning eng muhim vazifasi - o'rganuvchilarda ilmiy tafakkurni, yangi ma'lumotlarni mustaqil o'zlashtirish va tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarini, ilmiy farazlarni qurish va ularni sinab ko'rish uchun eksperimentlarni rejalashtirish qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham bunday turdagi ta'lim olish tizimi hozirgi kunda ijobiy qabul qilinmoqda. Aslida masofaviy ta'limni tanlagan abituryentlarning asosiy qismi bu o'z maqsadidan voz kechishni istamaydigan va bilim olishni xohlaydiganlar uchundir. Onlayn ta'limda talabalar dam olish kunlari, ish vaqtidan so'ng yoki hatto yarim kechada ham o'qish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Masofaviy ta'lim

¹ Jo'raqulova Fariza Farhodovna, Third years of students SSFL

² O'ktamov Azamatjon Azimovich, Third years of students SSFL

dasturlari, an'anaviy o'quv markazlari to'lovlariga qaraganda ancha arzon bo'ladi. Iqtisodiy jihatdan tejamkorlikni maqsad qilganlar uchun onlayn ta'lim eng yaxshi yo'l hisoblanadi. O'qish markazlariga borish vaqti va transportga sarflanadigan vaqt tejab qolinadi. Onlayn ta'lim talabalarga istagan joyidan o'qish imkonini beradi. Masofaviy ta'limda ayrim darslar guruh bo'lib o'qitiladi, lekin talabalar tezlikni o'zlariga mos ravishda tanlashadi. Guruhdagi har xil tezlikdagi tushunish darajasiga qaraganda, bu yondashuv samaraliroq bo'lishi mumkin. An'anaviy sinflardagi kabi yuzma-yuz muloqot va o'qituvchilar tomonidan topshiriqlar haqida eslatmalar yo'q. Masofaviy ta'limda o'z-o'zini motivatsiya qilish juda muhim. O'z-o'zini motivatsiya qilish o'quvchini o'z maqsadlariga erishish uchun doimiy ravishda intilishga undaydi, darslarni muntazam bajarishga va o'qishdan zavqlanishga yordam beradi. Bu o'quv muvaffaqiyatini oshirish va bilim olish jarayonini samaraliroq qilish uchun muhim omil hisoblanadi. Ta'limni boshqarish tizimlari (LMS) kabi platformalar onlayn kurslar, materiallar va talabalar bilan o'qituvchilar o'rtasidagi muloqotni tashkil etish va boshqarishga imkon beradi. Onlayn platformalar bir vaqtning o'zida katta miqdordagi talabalarni ta'lim olishini ta'minlab, ta'limni kengaytirish va ommalashtirish imkoniyatini beradi. Shuningdek, texnologik jihatlari ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishsiz ta'lim jarayonini to'laqonli amalga oshirish qiyin. Masofaviy ta'limda ko'plab interaktiv resurslar mavjud: video qo'llanmalar, qizlar, animatsiyalar. Bu ta'lim jarayonini yanada qiziqarliroq hamda samarali qiladi. Shuningdek, video qo'llanmalar orqali tushunmagan mavzusini qayt va qayta o'rganishi mumkin.

Kamchiliklarini aytadigan bo'lsak, o'z-o'zini nazorat qilish va mustaqil ta'lim olish qobiliyati kuchli bo'lmagan talabalar masofaviy ta'limda motivatsiyani saqlab qolishda qiyinchilikka duch kelishi mumkin. Shaxsiy o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi yuzma-yuz muloqot yo'qligi o'qish jarayonini murakkablashtirishi mumkin. Bundan tashqari, o'quvchilarning og'zaki nutqlari rivojlanmay passiv holatda saqlanib qolish ehtimoli ham mavjud. Yurtimiz misolida oladigan bo'lsak, aholimizning katta qismi qishloqda istiqomat qiladi. Shu sababli har doim ham internetga kirish imkoniyati yoki kerakli qurilmalarga ega bo'lmaslik masofaviy ta'limdan foydalanishni cheklashi mumkin. Ba'zi talabalar texnik vositalardan foydalanishni bilmasligi sababli o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. An'anaviy ta'lim bilan taqqoslaganda, masofaviy ta'limda talabalar o'rtasida o'zaro muloqot va ijtimoiylashuv kamroq bo'ladi, "peer assessment" qilish imkoniyati ham bo'lmaydi, bu esa o'qish jarayonida motivatsiya va qo'llab-quvvatlashni kamaytirishi mumkin.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, masofaviy ta'lim zamonaviy sharoitlarda bilim olishning samarali va tejamkor usuli bo'lib, ish va ta'limni birga olib borishni xohlovchilar uchun ayni muddao. Onlayn o'qitish vaqt va mablag'ni tejash bilan birga, individual o'qish tempiga moslashish imkoniyatini beradi. Biroq, chalg'ish ehtimoli yuqori va internet aloqasi bilan bog'liq muammolar ba'zi qiyinchiliklar keltirib chiqarishi mumkin. Shunday bo'lsa-da, masofaviy ta'lim zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarni kelajakda intellektual jihatdan yuqori talabga ega bo'lgan sohaga tayyorlashda katta ahamiyatga ega.

References:

- [1]. <https://interonconf.org>
- [2]. Соловов А.В. *Электронное обучение: проблематика, дидактика, технология.* – Самара: Новая техника, 2006. 160-бет
- [3]. Akbaraliyevich L. A. *Peculiarities of teaching foreign language to grown-ups //modern views and research.* – 2020. – С. 171.
- [4]. Begmatov, K. M. (2023). *Development of pedagogical skills of a foreign language teacher through educational technologies.* *Open Access Repository*, 9(10), 218-220.

[5]. Latipov A. *The framework of the theory of “development of the second language acquisition”* // *Интернаука*. – 2020. – №. 19-4. – С. 21-23.

[6]. <https://www.researchgate.net>

[7]. <https://scholar.google.com>

[8]. Гильмутдинов А.Х., Ибрагимов Р.А., Цивильский И.В. *Электронное образование на платформе Moodle*. – Казань: КГУ, 2008. – 169 с.

[9]. Богомолов В.А. *Обзор бесплатных систем управления обучением* // *Educational Technology & Society*, 2007. – 188 с.